



**TURAR JOY XARIDI UCHUN MUDDATLI TO‘LOV ASOSIDA QARZ  
AJRATISH TO‘G‘RISIDAGI SHARTNOMA**

**Toshkent shahri**

## TURAR JOY XARIDI UCHUN MUDDATLI TO‘LOV ASOSIDA QARZ AJRATISH TO‘G‘RISIDAGI SHARTNOMA

№ \_\_\_\_\_

Toshkent shahri

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2026-yil

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi) nomidan \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Boshqaruv raisi o‘rinbosari \_\_\_\_\_, bir tomondan, va \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda “Qarz oluvchi” deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, ikkinchi tomondan, hamda \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda “Birgalikda qarz oluvchi” deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, uchinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” deb yuritilib, ushbu shartnomani quyidagilar asosida tuzdilar:

**Tomonlar mazkur turar joy xaridi uchun muddatli to‘lov asosida qarz ajratish to‘g‘risidagi shartnomani (keyingi o‘rinlarda - “Qarz shartnomasi”) quyidagilar asosida tuzdilar:**

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

**1.1.** Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq Qarz oluvchiga (va Birgalikda qarz oluvchiga, mavjud bo‘lgan \_\_\_\_\_ taqdirda) Hamkor \_\_\_\_\_ tomondan sotiladigan \_\_\_\_\_ turar joyni xarid qilish uchun \_\_\_\_\_ so‘m miqdorida qarz mablag‘larini ajratadi. Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo‘lgan taqdirda) ushbu qarz mablag‘lari hamda uning qoldig‘iga nisbatan hisoblanadigan \_\_\_\_\_ foiz miqdoridagi Bank marjasini imtiyozli davrsiz, \_\_\_\_\_ yil muddatga, 20\_\_-yilgacha to‘liq to‘lash majburiyatini oladi.

**1.2.** Qarz mablag‘laridan foydalanganlik uchun Bank daromadi marja shaklida undiriladi hamda qarzdorlik ajratilgan sanadan boshlab to‘liq so‘ndirilgan sanaga qadar hisoblanadi.

**1.3.** Ajratilgan qarz mablag‘lari bo‘yicha oylik to‘lovlar tasdiqlangan jadvalga muvofiq har oyning 5-sanasida amalga oshiriladi.

## 2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

2.1. Ushbu qarz shartnomasi doirasida quyidagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi:

**Turar joy xaridi uchun muddatli to'lov asosida “Yangi uy” nomli mahsulot bo'yicha qarz** (keyingi o'rinlarda “Qarz mablag'lari” deb yuritiladi) - veb-sahifa yoki mobil ilovadan foydalanuvchi jismoniy shaxslarga Hamkorlar tomonidan sotiladigan ko'p xonadonli uylar va yakka tartibdagi uylarni (keyingi o'rinlarda - “Turar joy”) xarid qilish uchun Bank tomonidan ajratiladigan qarz mablag'lari;

Hamkor - Bank bilan tuzilgan hamkorlik shartnomasiga asosan turar joylarni sotuvchi tadbirkorlik subyekti;

Hamkorlik shartnomasi - turar joylarni oldi-sotdi qilish bo'yicha Bank va Hamkor o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi shartnoma;

Qarz oluvchi - Bank bilan tuzilgan ushbu qarz shartnomasiga asosan turar joy xaridi uchun qarz mablag'laridan foydalanuvchi jismoniy shaxs;

Birgalikda qarz oluvchi - Qarz oluvchi bilan birgalikda turar joy xaridi uchun ajratilgan qarz bo'yicha oylik to'lovlarda qatnashuvchi hamda ushbu qarz bo'yicha solidar javobgar bo'lgan jismoniy shaxs;

Dastlabki badal - Qarz oluvchi tomonidan xarid qilinadigan turar joy qiymatining Bank tomonidan belgilangan miqdordagi qismi bo'lib, ushbu mablag' turar joy xaridi uchun ajratiladigan qarz mablag'lari bilan birgalikda Hamkorning Bankdagi hisobvarag'iga belgilangan tartibda o'tkaziladi;

Skoring tahlil - Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda)ning ma'lum davrdagi daromadlari, qarzdorliklari hamda kredit tarixini tahlil qilish orqali ularning to'lovga layoqatlilikini baholovchi dasturiy tizim;

Marja - qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun olinadigan Bank daromadi;

ERI kaliti - foydalanuvchining shaxsini elektron shaklda identifikatsiya qilish, elektron hujjatlarni imzolash va ularning haqiqiyiligini tekshirish uchun qo'llaniladigan maxfiy raqamli kalit;

Face ID - foydalanuvchini yuz qiyofasi orqali aniqlash hamda qurilmaga xavfsiz kirish yoki onlayn shaklda muayyan amaliyotni tasdiqlashni ta'minlaydigan biometrik autentifikatsiya texnologiyasi;

Yaqin qarindoshlar - ota-onalar, farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

### 3. QARZ SHARTNOMASINI QABUL QILISH

**3.1.** Bankning veb-sahifasida yoki mobil ilovasida Qarz oluvchiga turar joy xaridi uchun qarz olish tartibi, shartlari hamda taxminiy to'lov jadvali bo'yicha tegishli ma'lumotlar joylashtiriladi. Qarz oluvchi mazkur ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, turar joy xaridi uchun qarz olish maqsadida qarz shartnomasini tuzish uchun ariza yuboradi.

**3.2.** Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda) qarz shartnomasini qabul qilish yoki rad etishdan avval, ularning qarz yuki hisobga olingan holda turar joy xaridi uchun qarz limiti skoring tahlili asosida mobil ilova yoki maxsus veb-sahifa orqali avtomatik tarzda aniqlanadi.

**3.3.** Qarz limitini aniqlash jarayonida rasmiy daromadga ega bo'lgan Qarz oluvchi hamda potensial Birgalikda qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari Bankka murojaat qilingan sanadan oldingi kamida uzluksiz 6 (olti) oy, biroq 12 (o'n ikki) oydan oshmagan davr uchun tahlil qilinadi va Bank tomonidan ishlab chiqilgan skoring tizimi natijalariga ko'ra qaror qabul qilinadi.

**3.4.** Rasmiy daromadga ega bo'lmagan ariza beruvchi hamda potensial Birgalikda qarz oluvchining qarz limiti bank kartasidagi mablag'lar aylanmasining o'rtacha arifmetik qiymati asosida yoki o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan taqdim etilgan o'rtacha oylik daromad to'g'risidagi so'rovnoma (anketa-deklaratsiya) asosida aniqlanishi mumkin.

**3.5.** Qarz oluvchi tomonidan Birgalikda qarz oluvchi sifatida kiritilgan barcha jismoniy shaxslar Bank tomonidan o'tkaziladigan skoring tekshiruvidan o'tishga o'z roziligini bildiradilar. Bunda skoring tahlilidan o'tishga rozilik Birgalikda qarz oluvchining telefon raqamiga yuborilgan bir martalik tasdiqlash kodi (OTP-kod)ni tasdiqlash orqali amalga oshiriladi.

**3.6.** Bank tomonidan Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda) uchun skoring tahlili asosida turar joy xaridi uchun qarz limiti belgilanganidan so'ng, Qarz oluvchi va Birgalikda qarz oluvchi mobil ilova yoki maxsus veb-sahifa orqali onlayn shaklda o'zlarining shaxsiy ERI (elektron raqamli imzo) kalitlari yordamida qarz shartnomasini imzolaydilar.

**3.7.** Birgalikda qarz oluvchilardan biri shartnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, Qarz oluvchi uning o'rniga boshqa jismoniy shaxsni Birgalikda qarz oluvchi sifatida kiritishga haqli.

**3.8.** Qarz shartnomasi unda nazarda tutilgan barcha tomonlar, ya'ni Qarz oluvchi, Birgalikda qarz oluvchi (mavjud bo'lgan taqdirda) hamda Bank tomonidan ERI orqali imzolangan paytdan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi.

## 4. QARZ OLUVCHI VA/YOKI BIRGALIKDA QARZ OLUVCHINING TASDIQLARI

**4.1.** Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda) ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlaydi:

**4.1.1.** Bankka taqdim etilgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarning haqiqiyligi hamda ishonchliligini;

**4.1.2.** Birgalikda qarz oluvchi ushbu qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlar yuzasidan Qarz oluvchi bilan birgalikda va solidar tartibda javobgar ekanligini;

**4.1.3.** Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda) ushbu qarz shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortgan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur shartnomaga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqida ogohlantirilganligini;

**4.1.4.** Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda) Bank tomonidan ajratilgan turar joy xaridi uchun qarz bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga qodir bo'lmagan yoki taqdim etilgan ma'lumotlar haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, Bank qarzni, hisoblangan marjani hamda boshqa to'lovlarni muddatidan oldin undirishni talab qilishga haqli ekanligi, shuningdek undiruvni qarz ta'minoti sifatida rasmiylashtirilgan mol-mulkka hamda Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda)ning boshqa mol-mulkiga qaratishga haqli ekanligi haqida ogohlantirilganligini.

**4.2.** Qarz oluvchi unga Bank tomonidan ajratilayotgan turar joy xaridi uchun qarz to'g'risidagi ma'lumotlarni Kredit axborotining davlat reestri (KADR)ga, CRIF kredit-axborot xizmatlari va Kredit axborotlari tahlil markazi (KATM) kredit byurolariga shuningdek, garov to'g'risidagi ma'lumotlarni Garov reyestri DUK ga taqdim etilishiga hamda turar joy xaridi uchun qarz mablag'lari hisobiga sotib olinayotgan turar joyni qonun asosidagi ipoteka bo'yicha qarz ta'minoti sifatida garovda turishida o'z roziligini beradi.

## 5. TURAR JOY XARIDI UCHUN QARZNI AJRATISH TARTIBI

**5.1.** Turar joy xaridi uchun qarz limiti mobil ilova yoki maxsus veb-sahifa orqali avtomatik tarzda, Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda)ning qarz yuki hisobga olingan holda skoring tahlili asosida aniqlanadi hamda Bankning Likvidlikni boshqarish qo'mitasi tomonidan belgilangan maksimal miqdordan oshmagan holda belgilanadi.

**5.2.** Turar joy xaridi uchun qarz Bankning Likvidlilikni boshqarish qo‘mitasi tomonidan belgilangan muddatda to‘liq qaytarish sharti bilan ajratiladi.

**5.3.** Dastlabki badal miqdori Bankning Likvidlilikni boshqarish qo‘mitasi tomonidan belgilanadi va xarid qilinayotgan turar joy qiymatining kamida 20 (yigirma) foizini tashkil etishi shart. Bank Qarz oluvchi tomonidan shakllantiriladigan dastlabki badal summasini hisobga olish uchun belgilangan tartibda alohida hisobvaraqa ochadi.

**5.4.** Mazkur qarz shartnomasi Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo‘lgan taqdirda) tomonidan qabul qilingandan so‘ng, Bank tomonidan turar joy xaridi uchun qarz mablag‘lari hamda dastlabki badal summasi Hamkorning Bankdagi hisobvarag‘iga belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

## 6. TURAR JOY XARIDI UCHUN QARZ MABLAG‘LARI BO‘YICHA TA‘MINOT

**6.1.** Turar joy xaridi uchun ajratilgan qarzning asosiy ta‘minoti sifatida ushbu qarz mablag‘lari hisobiga sotib olinadigan \_\_\_\_\_, turar joy xizmat qiladi. Mazkur turar joy Bank va Qarz oluvchi o‘rtasida kelishilgan qiymatda baholanadi hamda Qarz oluvchi hisobidan sug‘urtalanadi. Sug‘urta shartnomasi va sug‘urta polisi Bankka taqdim etiladi.

**6.2.** Turar joy xaridi uchun qarz hisobiga sotib olinadigan turar joy bo‘yicha garov shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda notarial yoki Bank tomonidan rasmiylashtiriladi. Har ikkala holatda ham garov obyekti bo‘yicha Garov reyestriga tegishli yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo‘yiladi.

**6.3.** Turar joy xaridi uchun qarzning qaytarilishini ta‘minlash bilan bog‘liq barcha hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlari Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo‘lgan taqdirda) zimmasiga yuklanadi.

## 7. TURAR JOY XARIDI UCHUN QARZNI SO‘NDIRISH TARTIBI

**7.1.** Turar joy xaridi uchun qarzni so‘ndirish Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo‘lgan taqdirda) tomonidan to‘lov jadvaliga muvofiq har oyning 5-sanasida amalga oshiriladi.

**7.2.** Turar joy xaridi uchun qarzni so‘ndirishda to‘lovlar quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

-	<i>hisoblangan</i>	<i>marja;</i>
-	<i>asosiy qarz summasi.</i>	

**7.3.** Bank turar joy xaridi uchun qarz bo‘yicha to‘lov muddati kelgan yoki muddati o‘tgan taqdirda, Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo‘lgan taqdirda)ning bank kartasidagi yoki boshqa

hisobvarag'idagi mablag'larni qarzdorlikni so'ndirish uchun avtomatik tarzda yechib olish va yo'naltirish huquqiga ega. Qarz oluvchi ushbu shartga o'z roziligini mazkur qarz shartnomasini imzolash orqali bildiradi.

**7.4.** Qarz oluvchi tomonidan turar joy xaridi uchun ajratilgan qarz mablag'lari amaldagi qonunchilikka zid maqsadlarda ishlatilgan taqdirda, Bank qarzni muddatidan oldin undirish huquqiga ega.

**7.5.** Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda) qarzni to'lov jadvaliga muvofiq oylik to'lovlar orqali so'ndirishi yoki qarzni muddatidan oldin to'liq yoki qisman so'ndirishi mumkin.

Muddatidan oldin so'ndirish amalga oshirilganda Qarz oluvchiga quyidagi variantlardan birini tanlash huquqi beriladi:

-	asosiy	qarz	summasini	kamaytirish;
-	keyingi to'lov davri uchun	to'lovni amalga oshirish.		

**7.6.** Turar joy xaridi uchun qarz bo'yicha to'lov to'lov jadvalida belgilangan sanadan oldin amalga oshirilgan taqdirda, Bank marjasi asosiy qarz qoldig'iga nisbatan mutanosib ravishda qayta hisoblanadi. Bunda yangilangan to'lov jadvali Bankning mobil ilovasida har oyning 1 (birinchi) sanasida shakllantirilib aks ettiriladi.

**7.7.** Bank muddatidan oldin so'ndirilgan qarzdorlik bo'yicha Qarz oluvchiga ixtiyoriy ravishda qo'shimcha imtiyozlar taqdim etishi mumkin.

## 8. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Qarz oluvchining huquqlari:

**8.1.1.** Bank tomonidan taqdim etilgan turar joy xaridi uchun qarz ajratish shartlari bilan tanishish.

**8.1.2.** O'z huquq va majburiyatlari, shuningdek turar joy xaridi uchun qarz ajratish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot olish.

**8.1.3.** Qarz shartnomasida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda qarz ajratilishini talab qilish.

**8.1.4.** Turar joy xaridi uchun qarzni muddatidan oldin to'liq yoki qisman so'ndirish.

**8.1.5.** Qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda yetkazilgan zararni qonunchilikda belgilangan tartibda Bankdan undirishni talab qilish.

**8.1.6.** Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

## 8.2. Qarz oluvchining majburiyatlari:

**8.2.1.** Turar joy xaridi uchun qarz olish va undan foydalanish uchun zarur hujjatlarni Bankka taqdim etish.

**8.2.2.** Qarz mablag'laridan amaldagi qonunchilikka hamda ushbu qarz shartnomasiga va boshqa tuzilgan kelishuvlarga muvofiq foydalanish.

**8.2.3.** Bank tomonidan ajratilgan qarz mablag'lari hisobidan yaqin qarindoshlar o'rtasida turar joy oldi-sotdi bitimlarini tuzmaslik.

**8.2.4.** Turar joy xaridi uchun qarzni va unga hisoblangan marjani qarz shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda qaytarish.

**8.2.5.** Qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lgan taqdirda, Bank tomonidan yuborilgan yozma, SMS yoki boshqa xabarnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kuni ichida to'lovni amalga oshirish.

**8.2.6.** To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda, Bank tomonidan ish haqi, bank kartalari va boshqa hisobvaraqlardan qarzdorlikni undirishga to'sqinlik qilmaslik.

**8.2.7.** O'z harakatlari natijasida Bankka yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni to'liq qoplash.

**8.2.8.** Har oyda veb-sahifa yoki mobil ilova orqali joriy qarzdorlik holatini tasdiqlash.

**8.2.9.** Garov sifatida taqdim etilgan mol-mulkning qiymati o'zgargan hamda sotish jarayonida qarzdorlik to'liq qoplanmagan taqdirda, qarzdorlikni boshqa mol-mulk hisobidan qoplash majburiyatini bajarish.

**8.2.10.** Bank tomonidan yuboriladigan xabarlarni, jumladan mobil ilova bildirishnomalari, SMS va PUSH-xabarlarni diqqat bilan o'rganish.

**8.2.11.** Bank tomonidan yuborilgan firibgarlik alomatlari yoki shubhali operatsiyalar to'g'risidagi xabarlarni inobatga olish hamda bunday holatlarda ehtiyot choralarini ko'rish.

**8.2.12.** Mobil qurilma yo'qolgan, o'g'irlangan yoki undan uchinchi shaxslar foydalanishi ehtimoli yuzaga kelgan taqdirda, bu haqda zudlik bilan, biroq 1 (bir) kalendar kunidan kechiktirmay Bankni xabardor qilish.

**8.2.13.** O'z roziligisiz amalga oshirilgan operatsiyalar aniqlangan taqdirda, 1 (bir) kalendar kuni ichida Bankni xabardor qilish.



**8.2.14.** O'zining aloqa ma'lumotlarini Bankka taqdim etish va ular o'zgargan taqdirda 3 (uch) kalendar kuni ichida bu haqda Bankni xabardor qilish.

**8.2.15.** Bank so'roviga ko'ra operatsiyalarni kim tomonidan amalga oshirilganligi to'g'risida zarur ma'lumotlarni taqdim etish.

**8.2.16.** Firibgarlik yoki shubhali operatsiyalar yuzasidan o'zida mavjud barcha ma'lumotlarni Bankka taqdim etish.

8.3. Bankning huquqlari:

**8.3.1.** Asosli holatlarda turar joy xaridi uchun qarz ajratishni rad etish.

**8.3.2.** Qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish hamda zarur hujjatlarni talab qilish.

**8.3.3.** Qarz to'lovlari 30 (o'ttiz) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirilgan taqdirda, qarzni sud tartibida muddatidan oldin undirish.

**8.3.4.** Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

8.4. Bankning majburiyatlari:

**8.4.1.** Qarz oluvchiga uning huquq va majburiyatlari, shuningdek qarz ajratish bilan bog'liq xarajatlar to'g'risida to'liq ma'lumot taqdim etish.

**8.4.2.** Qarz ajratish tartibi va shartlarini veb-sahifa yoki mobil ilovada joylashtirish.

**8.4.3.** Qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi natijasida yuzaga kelgan zarar Bank aybi bilan kelib chiqqan va sud tomonidan tasdiqlangan taqdirda, uni qoplash.

**8.4.4.** Qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

## 9. MAXSUS SHARTLAR

**9.1.** Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, inkassatorlar va davlat ijro organlari tomonidan Qarz oluvchiga tegishli mablag'lar yoki mol-mulkni undirish to'g'risidagi qarorlarni ijro etishda, undirishni Qarz oluvchining Bankdan olgan qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Bank bunday da'vo va qarorlarni ijro etmaydi.

**9.2.** Bank Qarz oluvchi hamda u tomonidan mazkur qarz mablag'lari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi va ularni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi. Mazkur ma'lumotlar faqat amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda oshkor qilinishi va taqdim etilishi mumkin.

**9.3.** Bank turar joy bilan bog'liq masalalar, jumladan uning sifati, narxi, yetkazib berilishi va boshqa shartlar uchun javobgar emas hamda ushbu masalalar yuzasidan kelib chiqadigan nizolarda ishtirok etmaydi.

**9.4.** Qarz oluvchi (va Birgalikda qarz oluvchi, mavjud bo'lgan taqdirda) vafot etgan taqdirda, qarzdorlikni undirish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq uning mol-mulkiga qaratiladi hamda zarur hollarda uning merosxo'rlariga nisbatan sud tartibida da'vo qo'zg'atilishi mumkin.

**9.5.** Sud muhokamasi jarayonida ushbu qarz shartnomasi hamda uning bajarilishi bilan bog'liq Bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlar dastlabki (birlamchi) dalil sifatida e'tirof etiladi. Mazkur qarz shartnomasi turar joy xaridi uchun ajratilgan qarz mablag'lari Bankka tegishli ekanligini hamda ularning qaytarilishi majburiyligini tasdiqlaydi.

## **10. JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH**

**10.1.** Hamkor "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga qat'iy rioya qiladi.

**10.2.** Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Bank Qarz oluvchini oldindan xabardor qilmasdan bank operatsiyalarini vaqtincha to'xtatish yoki pul mablag'larini muzlatish huquqiga ega.

**10.3.** Bank yuqorida ko'rsatilgan qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, oldindan ogohlantirmagan holda ushbu qarz shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan to'lov operatsiyalarini to'xtatib turish huquqiga ega.

**10.4.** Bank qonunchilik talablariga muvofiq, ushbu qarz shartnomasi doirasidagi operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni tegishli davlat organlariga taqdim etish huquqiga ega.

**10.5.** Qarz oluvchi yoki Hamkor tomonidan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmagan taqdirda, Bank ushbu qarz shartnomasini bir tomonlama tartibda, suddan tashqari bekor qilish huquqiga ega.

## 11. SHARTNOMA MUDDATI

**11.1.** Ushbu qarz shartnomasi Qarz oluvchi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**11.2.** Ushbu qarz shartnomasi turar joy xaridi uchun ajratilgan qarz muddati davomida amal qiladi hamda Tomonlar tomonidan barcha majburiyatlar to'liq bajarilgan taqdirda o'z kuchini yo'qotadi.

## 12. FORS-MAJOR

**12.1.** Tomonlar ushbu qarz shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini oldindan ko'ra olmagan va oqilona choralar bilan bartaraf etib bo'lmaydigan favqulodda holatlar (fors-major holatlar), jumladan suv toshqini, yong'in, zilzila, fuqarolar tartibsizliklari, bosqinchilik, harbiy harakatlar yoki boshqa tabiiy ofatlar natijasida bajara olmagan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi. Bunda qarz shartnomasining amal qilish muddati mazkur holatlarning davom etish davriga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

## 13. ANTIKORRUPSION NORMALAR

**13.1.** Tomonlar qarz shartnomasini tuzishda, uning amal qilish muddati davomida va u tugaganidan keyin ushbu shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir etmaslikka kelishib oladilar.

**13.2.** Qarz shartnomasi shartlarini bajarishda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir qonunchiligiga, Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga hamda ichki normativ hujjatlariga rioya etishlari shart.

**13.3.** Korrupsion xavflarni yuzaga keltiruvchi hamda manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi holatlar aniqlangan taqdirda, bu haqda Bankning komplayens va ichki nazorat bo'linmasiga yozma ravishda xabar berilishi lozim.

**13.4.** Tomonlar korrupsiyaga, poraxo'rlikka, tovlamachilikka, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonunchilik talablaridan xabardor ekanligini hamda ularga rioya etishini tasdiqlaydi.

**13.5.** Tomonlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan qo'shimcha choralarni tan oladi va ularni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik qiladi.

## 14. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

**14.1.** Tomonlar ushbu qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**14.2.** Mazkur qarz shartnomasi bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal etiladi. Nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo-Ulug'bek tumanlararo sudida ko'rib chiqiladi.

**14.3.** Ushbu qarz shartnomasi Tomonlar tomonidan qabul qilingandan so'ng yuridik kuchga ega bo'ladi. Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan qo'lda imzolangan yoki elektron raqamli imzo (ERI) orqali tasdiqlangan taqdirda teng yuridik kuchga ega hisoblanadi.

## 15. TOMONLARNING MA'LUMOTLARI VA IMZOLARI

(Tomonlarning rekvizitlari va imzolari uchun joy)